

ARABLARNING O'RTA OSIYODA HUKMRONLIGINI O'RNATILISHI**Yursinboyev Jahongir Mehrojdin o'g'li**

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika insituti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. VIII asrda arablar Movarounnahr hududiga bostirib kirishi bosqinchilik yurishi deb qaraladimi yoki fatx. Arablar nima maqsadda bostirib kirgan.

Kalit so'zlar: Islom, fatx, arablar, Qutayba ibn Muslim, Xuroson, Movarounnahr, xiroj, jizya.

Arab qabilalari islom dini kelguniga qadar tarqoq va urug'chilik tuzumida yashar edilar. Islom dini kirib kelgandan so'ng esa arablar yagona davlatga birlashdi. Ular o'z davlatlarini yuksaltirishda islom dini ahkomlaridan foydalandi va qudratli davlatga aylandi. Ular islom dinini qolgan xalqlarga yetkazish butun dunyoga yoyish uchun kurash olib bordilar. Arab xalifaligining istilochilik yurishlarida O'rta Osiyo erlarini bosib fatx etish va uning xalqlarini itoatga keltirish, bu hududda islom dinini yoyish alohida o'rin tutadi. Negaki bizning o'lkamizdek boy-badavlat yurtini qo'lga kiritish, unga hukmronlik qilish, behisob moddiy va ma'naviy boyliklarni tasarruf etish-bu arab hukmron doiralarining eng asosiy istilochilik maqsadlari bo'lgan. VII asr o'rtalariga kelib Eron hududlari egallangach, endilikda xalifalik e'tibori Xuroson va O'rta Osiyo erlarini bosib olishga qaratiladi. Bunda Vatanimiz sarhadlarida arablar istilosi jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tmoq joizdir. Uning birinchi bosqichi – VII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, bu davrda ayrim arab lashkarboshlari qo'shini Amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu erlarning boyliklarini talab, ma'lum o'ljalarni qo'lga kiritib, ortga qaytganligini kuzatish mumkin. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad- bu hududlarni yaqin kelajakda bosib olishga tayyorgarlik ko'rish bo'lgan. Masalan, 651-yili noib Abdulloh ibn Amir hukmronligi davrida arablar Xurosondagi Nishopur, Obinahr, Tus, Jom, Obivard va boshqa katta-kichik qo'rg'on shaharlarni egalladilar. Faqatgina 651-yilning o'zida Xuroson noibi ibn Amir yangi egallangan yerlardan xalifa xazinasiga 6 mln. 200 ming dirham to'plagan soliqlarni yuboradi. Balx yaqinidagi hal qiluvchi jangda (652-y.) arablar Balx shahrini egallashadi. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movarounnahrda hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Lekin shu bilan birga, har holda Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652-yil boshida Chag'oniyonni egallashga muvaffaq bo'ladi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yili Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ladi. 657-yili Chag'oniyonga arablar qayta yurish qilib eftalitlarga qarshi qat'iy zarba berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Xalifalik ichidagi o'zaro hokimiyat uchun ichki nizolarning kuchayishi natijasida arablarning Movarounnahr yerlariga hujumlari bir oz to'xtab qoladi. Hatto 658-659 yillarda noib Xulayd Nishopur va Marv aholisidan arzimas soliqlar olish [xususida shartnoma imzolab](#), bosib olingan Xuroson yerlaridagi nazoratni ancha susaytiradi. 661 yili hokimiyat boshiga yangi Ummaviylar (661-750) sulolasining kelishi harbiy harakatlarning faollashuviga sabab bo'ladi. 665-yili xalifa Muoviya (661-680) Ziyod ibn Abu Sufyonni Basra, Seyiston va Xuroson noibi etib tayinlaydi. Xalifa unga jadal harbiy harakatlar qilish topshirig'ini bergan edi. Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviyaning farmoni bilan Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib Buxoro viloyatiga bosib kiradi, Poykand va Romitonni egallab, Buxoro shahrini qamal qiladi. Yordamga kelgan turkiylar buxoroliklar bilan bir qator turib arablarga qarshi jangda qatnashadilar. Bu jangda arablar g'olib keladilar. O'sha yili arablarning ar-Rabiy boshchiligidagi harbiy otryadi Amul, Zemm va Xo'jand atroflarigacha bo'lgan yerlarga hujum qilib, katta o'lja bilan orqaga qaytishgan edi. 676-yili Xurosonning yangi noibi Sayid ibn Usmonning Buxoro va Samarqandga yurishida Muhammad payg'ambarning jiyani Qusam ibn Abbos ibn Abdul-Mutallib ishtirok etadi.¹

Yozma manbalarda Said ibn Usmon bilan Movarounnahrda kelgan ko'p ming kishilik arab qo'shinlari qatorida Muhammadning avlodlaridan Ko'sam ibn Abbos ham bo'lgan, (Tarixchi Abu Tohir Xojaning

¹ <https://fayllar.org/arablarning-orta-osiyoga-kirib-kelishi>.

ma'lumotiga qaraganda Abbos o'g'li Qusam Abbos ibn Abdulmutallib ibn Xoshim al-Qarshi al Xoshimiy Muhammad payg'ambarning amakisi). Sa'id ibn Usmon Buhoro va Samarqanddan qo'lga olgan o'ljalarni Kusam ibn Abbosga ko'rsatib: «Bu o'ljalardan har kishiga bir hissa, senga esa ming hissa beraman» deganda, Qusam ibn Abbos shariat buyurganidan bir xissa ham- ortig'ini olmayman degan ekan. Qusamning taqdiri tug'risida turlincha ma'lumotlar bor. Ba'zilar uni Samarqandda o'ldirilgan desalar yani ba'zi birovlar u Marvda vafot etgan deb isbotlaydilar. Lekin nima bo'lganda ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da yoznlishicha Samarqanddaga Shoxizinda maqbarasi shu shaxs nomi bilan bog'liqdir Samarqand yonidagi janglardan birida halok bo'lib, so'ng keyinchalik Shohi Zinda (tirik shoh) nomini olgan qabristonga dafn etiladi.² O'lkamizni bosib olishning ikkinchi, hal qiluvchi bosqichi VIII asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Xususan, 704 yilda Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O'rta Osiyo hududlarini uzil-kesil bosib olish vazifasi yuklanadi. Iste'dodli lashkarboshi Qutayba katta tayyorgarlik ko'rgandan so'ng 706 yilda Jayxun (Amudaryo)dan o'tib Boykandni egallash sari harakatlanadi. Arablar mahalliy xalq qarshiligini engib shaharni qo'lga kiritadilar, uning boyliklarini talaydilar. O'lja olingan boyliklar tortib ko'rilganda ularning og'irligi 150 ming misqol (bir misqol4,240gr) chiqadi. 707 yilga kelib Kesh, Naxshab ham og'ir janglar bilan fath etiladi. 708-709 yillarda Qutayba qo'shini Vardanze, Romiton va So'g'd erlarini ishg'ol qiladi. G'oyatda usta diplomat va mohir sarkarda sanalgan Qutayba mahalliy hukmdorlarning o'zaro kelishuvi va ittifoqiga izn bermay, bu hududlarni birin-ketin egallaydi. So'g'dning bosh shahri – Samarqand bosib olingach, qo'lga kiritilgan oltin butlar va xazinalarning umumiy og'irligi 50 ming misqolni tashkil etgan. Samarqand hokimi G'urak (709-738) bilan tuzilgan Shartnomaga binan u arablarga yiliga 2200000 dirxam tovon to'lashi, 30 ming baquvvat yigitlarni qul o'rnida berishi ko'zda tutilgan edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi – Afrosiyob kelgindi arab aholisi uchun turar joy sifatida beriladi. Uning tub aholisi esa o'z joyidan mahrum etiladi. Samarqanddan so'ng arab lashkari Buxoroni bosib olib uning boyliklarini talaydi. Biroq Qutayba tobe Buxoroni boshqarishni Buxoro xukmdori Xotun podshoning o'g'li Tog'shoda izmida qoldiradi. Qutayba ibn Muslim 711-715 yillarda Toshkent, Xo'jand, sharqiy Turkiston yerlarini bosib olib, bu erlarda ham o'z hukmronligini o'rnatadi. 715 yili halifa Validning o'limidan voqif bo'lgan Qutayba qo'zg'alon ko'taradi, ammo Farg'onada o'z yaqinlaridan biri tomonidan o'ldiriladi³. Shu tariqa, arablar Movarounnahr (daryo orti) deb nom bergan O'rta Osiyo hududlari VIII asrning dastlabki o'n yilliklari davomida bosib olindi. Arablar istilochilar sifatida bu hududda mahalliy aholiga nisbatan mislsiz zulm va zo'ravonlik o'tkazdilar. Xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma'naviy boyliklar, asori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy yozuvlarda bitilgan nodir kitoblar, qo'l yozmalar yondirildi. Zardushtiylik, buddizm dinining ko'plab ibodatxonalari, muqaddas qadam jolari kunpaya- kun etildi. Ulug' Bobokalonimiz Beruniy o'zining «O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar» asarida achchiq alam bilan ta'kidlaganidek, arablar mahalliy din, san'at, adabiyot namoyandalarini, olimlarni o'ldirdilar, asarlarini esa olovda yondirdilar. So'ngra ular ajdodlarimizning bebaho boyligi hisoblangan mahalliy yozuvlar, tarixiy hujjatlarni yo'q qildilar. Musulmonchilik diniga, islom aqidalariga zid keladigan jamiki narsalar ularning nazarida g'ayritabiyy hol hisoblanib, ular ayovsiz yo'q qilindi. Bularning o'rniga arablar aholidan olingan mo'may daromadlar, to'lovlar evaziga hashamatli, serviqor masjidu, madrasalar xonaqolar, maqbaralar barpo etib odamlarni ularga da'vat etdilar. Yurtimiz jilovini qo'lga olgan arab hukmdorlari xalqqa zulmu, asoratni kuchaytirish maqsadida turli xil soliq, o'lponlarni joriy etdilar.⁴ Bizining tarixchi olimlar tomonidan berilgan ko'plab ma'lumotlarda arablarning bizning yurtga bostirib kirishi qoralandi. Go'yoki, arablar bizning tariximizni yo'q qilgan, degan xulosa keltirib qo'yishadi aslini olganda esa bizning hududlarda aynan arablar kelganidan so'ng rivojlanish bo'ldi. Muxtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek renesans bo'lgan.

Shunday qilib sahroyi arablar dunyoning eng qadimiy va madaniyat o'lkalaridan biri bo'lmish Movarounnahrni o'z mustamlakalariga aylaltiradilar. Movarounnahr hududida yashagan ajdodlarimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda sahroyi arablarga qaraganda anchagina oldinda edilar.

² Narshaxiy. Buxoro tarixi T., "Kamalak" 1991 yil 115 –bet

³ [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'rta_Osiyo_\(arab_istilosi\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'rta_Osiyo_(arab_istilosi))

⁴ <https://talaba.su/o-rta-osiyo-xalo-lari-arablar-istilosi-va-hukmronligi-davrida>

<https://conferencea.org>

Nima sababdan ularni arab istilochilari nisbatan tez va oson bosib ola oldilarq Buning sabablari- birinchidan o'lkada xalqlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlikning bo'lmaganligi va feodal tarqoqlikning mavjudligidir. Arablar Movarounnahr yerlariga bostirib kelgan paytda o'lkada bir-biriga dushman bo'lgan 15 dan ortiq kichik-kichik feodal davlatchalar bor edi. Bu holdan arablar ustalik bilan foydalandilar. Ikkinchidan, arablar ko'chmanchi turk qabilalari bilan mahalliy o'troq xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklardan ham foydalandilar. Uchinchidan, arablar Movarounnahr qadar juda ko'plab boshqa mamlakatlar va aholi hududlarini bosib olgan edilar. Ular bu mamlakatlarning aholi kuchlari, moddiy boylik imkoniyatlaridan ona tuprogimiz hududlarini bosib olish chog'ida foydalandilar. To'rtinchidan, arablar Movarounnahr hududlariga bostirib kelganlarida bu yerda ko'pdinlilik hukm surardi. Bu hol arablarga qarshi o'lkamiz hududi xalqlarining birlashuviga to'sqinlik qildi va arab bosqinchilarining g'alabasini yengillashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Narshaxiy. Buxoro tarixi T., "Kamalak" 1991 yil 115 –bet
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'rta_Osiyo_\(arab_istilosi\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'rta_Osiyo_(arab_istilosi))
3. <https://talaba.su/o-rta-osiyo-xalo-lari-arablar-istilosi-va-hukmronligi-davrida>
4. <https://fayllar.org/arablarning-orta-osiyo-ga-kirib-kelishi>.
5. 7-sinf O'zbekiston tarixi Muhammadjonov.A Toshkent. 2017.